


Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. *Ii harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*
2. *Ip va nina so'zlarining chizmasidan i harfining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.*



3. *Berilgan namunadan bosma Ii harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.*

2. *Nomlari katakda berilgan so'zlarga mos rasmlarni bo'yang. (O'quvchilar it, ot, in rasmlarini bo'yashi kerak)*

Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?*
- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*

12-mavzu: [i] tovushi. Ii harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [i] tovushining talaffuzi va Ii harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [i] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: mos so'zni topish, so'zdan so'z topish [i] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasimli kartochkalar, kesma harflar, "Ikki do'st" audio ertak.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga 2 ta rasm qo'yadi. Shu rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bog'lab gap tuzishni so'raydi.

- Bugun siz bilan “Gap tuzamiz” mashqini o‘tkazamiz. Doskadagi rasmlarni ifodalovchi soʻzlarni bir biriga bogʻlab gap tuzing.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

Oʻqituvchi kesma harflar yordamida barcha oʻtgangan harflari bilan soʻz hosil qilishni soʻraydi.

Kesma harflaringiz yoramida oʻrgangan harflarimiz bilan soʻzlar tuzing.

Tuzgan soʻzlaringizni partadoshingizga oʻqib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Qanday soʻzlar tuza oldingiz?*
- *Partadoshingiz qanday soʻzlarni tuza oldi?*
- *Partadoshingiz tuzgan soʻzlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan soʻzlar orasida yoʻq?*

2. Mavzuni mustahkamlash: (10 daqiqa)

Oʻqituvchi [i] tovushini soʻzlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar toʻsiqqa uchramasligi, choʻziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda toʻsiqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda koʻk rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir soʻzni oʻquvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Kiyik (rasmi) - boʻgʻinga boʻlinadi 2 boʻgʻin, 1 - boʻgʻinda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2 - boʻgʻinda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. Ii harfi bu soʻzda 2 - va 4 - katakda ekanligini aniqlab shu kataklarni boʻyaydi.



Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

Chizmaga mos soʻzni ifodalayotgan rasm birlashtiriladi va tahlil qilinadi.

Darslik bilan ishlash: (10 daqiqa)

- 1. Berilgan soʻz va gaplarni oʻqing.*
- 2. Darslikda berilgan gap chizmasi asosida mos soʻzlarni topib gap tuzing.*
- 3. Soʻzlardan bir harfni oʻzgartirib, yangi soʻz hosil qiling.*
- 4. Oʻqituvchi uchun eslatma:**

Gap chizmasiga mos keluvchi soʻzni rasmdan qanday topish, nimaga ahamiyat berishni oʻrgatiladi.

Soʻzdan yangi soʻz topishni bitta soʻz misolida avvali birgalikda soʻng oʻquvchilar oʻzlari topadilar.

Tinglab tushunish ; (7 daqiqa).

”Ikki doʻst” audio ertagi tinglanadi. Ertak mazmuni soʻraladi.

Daftar bilan ishlash: (8 daqiqa)

- 1. Boʻgʻinlarni oʻqing ochiq boʻgʻinlarga bir chiziq, yopiq boʻgʻinlarga esa ikki chiziq chizing.*
- 2. Rasmlarni ifodalovchi soʻzlarda i harfining oʻrnini toping.*
- 3. Rasmni ifodalovchi soʻzlar orasidan I tovushi bor soʻzlarni belgilang.*

Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?*
- Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?*
- Amaliy mashqlardan qaysi birini siz oʻzingiz mustaqil bajara oldingiz?*
- Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?*